FUQAROLIK JAMIYATI — DEMOKRATIK DAVLATNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy gumanitar pedagogika oliy maktabi fakulteti

321-26-guruh talabasi Karimova Shirina

UO'K (УДК): 342.72/.73:321.7(575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili, Sharq va G'arb siyosiy-huquqiy tafakkuri tarixida fuqarolik jamiyati g'oyalarining rivoji hamda Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik institutlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishdagi ishtiroki hamda sohadagi institutsional to'siqlarni bartaraf etishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat, konstitutsiyaviy islohotlar, jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ijtimoiy sheriklik, mahalla budjeti, elektron demokratiya.

Аннотация: В данной статье исследованы социально-философский анализ понятия гражданского общества, развитие идей гражданского общества в истории политико-правовой мысли Востока и Запада, а также вопросы совершенствования гражданских институтов в условиях Нового Узбекистана. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации по участию негосударственных некоммерческих организаций, политических партий, средств массовой информации и органов самоуправления граждан в децентрализации государственного управления и устранению институциональных барьеров в данной сфере.

Ключевые слова: гражданское общество, демократическое правовое государство, конституционные реформы, общественный контроль, негосударственные некоммерческие организации (ННО), социальное партнерство, бюджет махалли, электронная демократия.

Abstract: This article investigates the socio-philosophical analysis of the concept of civil society, the evolution of civil society ideas in the history of Eastern and Western political and legal thought, and the issues of improving civil institutions in the context of New Uzbekistan. Furthermore, scientific and practical recommendations have been developed regarding the role of non-governmental non-profit organizations, political parties, mass media, and self-governing bodies in decentralizing public administration and overcoming institutional barriers in the field.

Keywords: civil society, democratic rule-of-law state, constitutional reforms, public oversight, non-governmental non-profit organizations (NGOs), social partnership, mahalla budget, e-democracy.

KIRISH

Zamonaviy davlatchilik taraqqiyotida siyosiy tizimning barqarorligi va islohotlarning natijadorligi davlat institutlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi konstruktiv muloqot darajasiga bevosita bog'liqdir. Demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayoni ijtimoiy munosabatlarni tizimli liberallashtirishni, davlat boshqaruvi vakolatlarini markazlashtirishdan bosqichma-bosqich nomarkazlashtirishga o'tkazishni hamda qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik institutlarining real ishtirokini kengaytirishni taqozo etadi [2; 6]. Nazariy-huquqiy nuqtai nazardan, fuqarolik jamiyati — shaxs manfaatlari va qadr-qimmati ustuvor bo'lgan, qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat qaror topgan, hokimiyat idoralari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati o'rnatilgan hamda ijtimoiy aloqalar yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik tizim hisoblanadi [3, 69-b.; 12, 152-b.].

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan bo'lib, mazkur konstitutsiyaviy normani hayotga tatbiq etishda fuqarolik jamiyati institutlari muhim institutsional ko'prik vazifasini bajaradi [1]. Statistik tahlillarga ko'ra, bugungi kunda respublikada 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) hamda minglab fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatayotgani uchinchi sektorning institutsional ko'lami sezilarli darajada kengayganini tasdiqlaydi [13]. Zero, aholining davlat hokimiyati organlari siyosatiga bo'lgan ishonchi aynan erkin fuqarolik institutlari ishtirokidagi ijtimoiy sheriklik orqali mustahkamlanadi [12, 152-b.].

Shu bilan birga, joylarda ijro hokimiyati idoralari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik monitoringini yuritish va norma ijodkorligi jarayoniga NNTlarni keng

jalb etishda ayrim tizimli muammolar kuzatilmoqda. Ma'muriy-buyruqbozlik stereotiplarining saqlanib qolishi hamda byurokratik to'siqlar hududlarda quyi bo'g'indagi fuqarolik tashabbuslarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [4, 88-b.]. Binobarin, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir [9, 45-b.].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fuqarolik jamiyati tushunchasining kategorial-retrospektiv tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur ilmiy kategoriya insoniyat ijtimoiy-falsafiy tafakkurining ko'p asrlik tadrijiy mahsulidir. Ushbu ta'limotlarning mazmunan farqlanishi, avvalo, tadqiqotchilar qo'llagan metodologik yondashuvlarning o'ziga xosligi hamda har bir tarixiy davrda ustuvorlik qilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalar tabiati bilan izohlanadi [9, 18-b.].

G'arb siyosiy-huquqiy an'anasida fuqarolik jamiyati konsepsiyasi antik davr falsafasiga borib taqaladi. Qadimgi yunon tafakkurida jamiyat va davlat (polis) tushunchalari uzviy birikkan holda talqin qilingan. Xususan, Aflotun (Platon) o'zining «Davlat» dialogida fuqarolarning ijtimoiy hayotini siyosiy faollik bilan uyg'unlikda ko'rgan bo'lsa, uning shogirdi Arastu (Aristotel) «Siyosat» asarida mavhum ideal tuzumni emas, balki real mavjud boshqaruv shakllarini qiyosiy tahlil qilish metodologiyasini qo'llagan. Aflotundan farqli ravishda, Arastu xususiy mulkchilikni inson tabiatiga xos bo'lgan va ijtimoiy munosabatlar o'zagini tashkil etuvchi tabiiy huquq sifatida e'tirof etgan. Arastuning talqinicha, adolatli siyosiy boshqaruv shaxslarning subyektiv xohish-istaklariga emas, balki «oqilona tafakkur» ifodasi bo'lgan qonun ustuvorligiga tayanishi zarur [9, 24-b.]. Qadimgi Rim mutafakkiri Mark Tulliy Sitseron esa davlatni (res publica) umumiy huquq va manfaatlar asosida birlashgan «xalqning umumiy mulki» sifatida tavsiflab, davlatchilik tushunchasiga ilk bor yuridik mazmun bag'ishlagan.

Yevropa Uyg'onish va Yangi davr falsafasida fuqarolik jamiyati davlatdan avtonom tuzilma sifatida konseptuallashdi. Nikolo Makiavelli empirik-pragmatik

siyosatshunoslikka asos solib, jamiyatdagi sinfiy va partiyaviy manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilgan bo'lsa, ingliz mutafakkiri Jon Milton 1644-yilda so'zlagan mashhur «Areopagitika» nutqida matbuot va vijdon erkinligini himoya qilib, shunday ta'kidlagan edi: «Insonga barcha imtiyozlardan ham ko'ra erkin fikr yuritish, erkin gapirish va narsalar haqida o'zining e'tiqodi bo'yicha erkin fikrlash imtiyozi kerak... Yaxshi kitobni o'ldirish yaxshi odamni o'ldirish bilan barobardir, chunki kim yaxshi kitobni o'ldirsa, tafakkurning o'zini o'ldirgan bo'ladi» [9, 31-b.]. Ushbu g'oya keyinchalik zamonaviy axborot erkinligi va senzuraga yo'l qo'ymaslik institutining nazariy poydevoriga aylandi

Liberal-demokratik yondashuvning shakllanishida Tomas Gobbs («Fuqaro haqida», «Leviafan») va Jon Lokk («Davlatni boshqarish haqida ikki risola») qarashlari burilish yasadi. J.Lokk hokimiyatlar bo'linishi doktrinasini asoslab, shaxs erkinligi va xususiy mulk daxlsizligini davlat hokimiyatidan ustun qo'ydi. Fransuz ma'rifatparvari J.J.Russo esa fuqarolik uyushmasining asosiy vazifasini quyidagicha ifodalagan: «Uyushmaning shunday shaklini topish kerakki, unda mujassam bo'lgan qudrat uyushma a'zolarining shaxsi va mulkini himoyalashi va asrashi, shu tufayli barcha bilan birlashgan har bir kishi ko'pchilikka bo'ysunadi va ayni vaqtda, ilgarigidek erkin bo'lib qolaveradi. Ijtimoiy shartnoma bajaradigan asosiy vazifa ana shudir» [9, 34-b.]. Shuningdek, anglo-amerika liberal maktabi vakillaridan A.Smit iqtisodiy o'zini o'zi boshqarishni, T.Peyn «minimal davlat» konsepsiyasini, A. de Tokvil jamoat birlashmalari demokratiyasini, J.S.Mill esa fuqarolik institutlarining davlatdan mustaqilligini ilmiy asoslab berganlar

Nemis klassik falsafasi namoyandasi Immanuil Kant fuqarolik jamiyatini axloqiy «qat'iy imperativ» va huquqiy erkinlik uyg'unlashgan umuminsoniy makon sifatida talqin etgan. Gegel esa o'zining «Huquq falsafasi» asarida oila, fuqarolik jamiyati va davlat triadasini (uchligini) farqlab, fuqarolik jamiyatini shaxsiy manfaatlarni umumiy huquqiy maydon bilan bog'lovchi vositachi sifatida ta'riflagan: «Avvalo, xususiy mulkchilikka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, ijtimoiy qatlamlar, oila, axloq, burch, madaniyat, ta'lim, qonunlar fuqarolik

jamiyatini tashkil etadi» [9, 36-b.]. Gegel ta'limotiga ko'ra, fuqarolar huquqlarining poymol etilishi jamiyatda «ijtimoiy portlashlar»ni keltirib chiqaradi, shu bois shartnomalar daxlsizligi va odil sudlov tizimi barqarorlikning bosh kafolatidir

Tarixiy-qiyosiy tahlillar adolatli fuqarolik jamiyati haqidagi ilk konseptual g'oyalar Sharq tamaddunida ham chuqur ildiz otganini tasdiqlaydi. Xususan, zardushtiylikning muqaddas manbasi — «Avesto»da oila barqarorligi hamda erkak va ayolning teng huquqliligi jamiyat taraqqiyotining birlamchi sharti sifatida ulug'langan. O'rta asrlar Sharq Uyg'onish davrida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur va Alisher Navoiy asarlarida fozil jamiyat va adolatli boshqaruv nazariyalari yaratildi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» risolasida rahbarlarning xalq ichidan demokratik tanlanishi haqida shunday yozadi: «Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular oddiy odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar» [9, 27-b.].

Nizomulmulk «Siyosatnoma» asarida davlat xizmatchilarining ma'naviy pokligi hamda boshqaruvda kengash (mashvarat) institutining ahamiyatini asoslagan bo'lsa, Sohibqiron Amir Temur davlat qudratini qonun ustuvorligi bilan bog'lab, «Temur tuzuklari»da quyidagilarni qayd etgan: «Tajriba menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. Shuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim» [9, 28-b.]. Mutafakkir Alisher Navoiy esa «Saddi Iskandariy» va «Mahbub ul-qulub» asarlarida adolatlilik, ma'rifat va vatanparvarlikni ijtimoiy tanazzulning oldini oluvchi ma'naviy ustunlar sifatida baholagan

Zamonaviy siyosatshunoslik va huquqshunoslikda fuqarolik jamiyatining institutsional muammolari xorijiy olimlardan F.Shmitter, K.Xelmut, A.I.Solovyov,

V.P.Pugachyov, V.Baturin hamda O'zbekiston olimlaridan M.Sharifxo'jayev, X.Odilqoriyev, A.X.Saidov, M.Qirg'izboyev, A.Jalilov, Q.Nazarov va T.Xalilovlar tomonidan tadqiq etilgan [12, 153-b.]. Jumladan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov fuqarolik jamiyatining huquqiy tabiatini quyidagicha ta'riflagan: «Biz uchun fuqarolik jamiyati — ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi» [8, 14-b.]. Akademik M.Sharifxo'jayev esa o'z tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatiga «mustaqil ishlab chiqaruvchi, mustaqil erkin xaridor, mustaqil ozod fuqaro jamiyati» sifatida ijtimoiy-iqtisodiy ta'rif bergan [8, 22-b.]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining genezisi va zamonaviy transformatsiyasini o'rganish maqsadida tarixiy-retrospektiv, tizimli-struktural, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy umumlashtirish hamda institutsional tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi [12, 153-b.]. Empirik manba sifatida 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, sohani tartibga soluvchi kodeks va qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazining rasmiy statistik ma'lumotlari kontent-tahlil qilindi [1; 2; 13].

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy-metodologik umumlashtirishlar asosida fuqarolik jamiyatiga quyidagicha mualliflik ta'rifini shakllantirish mumkin: fuqarolik jamiyati — davlatning bevosita ma'muriy aralashuvisiz, o'zini o'zi tashkil etish tamoyili asosida rivojlanuvchi shaxslararo, oilaviy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va axborot tuzilmalari majmui bo'lib, fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari orqali davlat va

jamiyat boshqaruvidagi ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi gorizontal munosabatlar tizimidir.

Davlat hokimiyatining qat'iy bo'ysunishga asoslangan vertikal iyerarxiyasidan farqli o'laroq, fuqarolik jamiyati subyektlari o'rtasidagi munosabatlar tenglik va ixtiyoriylikka tayanuvchi gorizontal tarmoq xususiyatiga ega. Ushbu tizim uchta tarkibiy sohani qamrab oladi: 1) iqtisodiy munosabatlar — mulkchilik shakllarining tengligi va iqtisodiy plyuralizmga asoslanib, shaxsning mulkdan begonalashuviga barham beradi; 2) madaniy-ma'naviy munosabatlar — millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi va oilaviy qadriyatlarni umuminsoniy gumanizm me'yorlari asosida uyg'unlashtiradi; 3) shaxslararo va axborot munosabatlari — fikrlar xilma-xilligi va erkin muloqot muhitini yaratadi. Demokratik huquqiy davlatning mustahkam poydevori sifatida fuqarolik jamiyati o'rta mulkdorlar sinfining shakllanganligi, ko'ppartiyaviylik (siyosiy plyuralizm) hamda jamiyatda yuqori huquqiy madaniyatning qaror topganligi kabi uchta fundamental ustunga tayanadi [9, 46-b.].

Mustaqillik yillarida va ayniqsa 2017-yildan boshlangan demokratik yangilanishlar davrida O'zbekistonda uchinchi sektor faoliyatini huquqiy kafolatlashga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi hamda 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonunlar sohaning normativ negizini tashkil etadi [5; 12, 153-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi PF-5430-sonli Farmoni, 2019-yil 4-oktabrdagi va 30-oktabrdagi qarorlari asosida davlat rahbari bilan nodavlat sektor o'rtasida bevosita muloqotni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi hamda uning ishchi organi sifatida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi ta'sis etildi [12, 154-b.]. Shuningdek, 2021–2025-yillarda

fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida «Jamiyat — islohotlar tashabbuskori» tamoyili asosida 35 dan ziyod qonun hujjatlariga jamoatchilik nazorati vakolatlarini kengaytiruvchi o'zgartishlar kiritildi [2; 4].

Mazkur islohotlarning mantiqiy cho'qqisi sifatida 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga maxsus XIII bob — «Fuqarolik jamiyati institutlari» bobi kiritildi. Asosiy Qonunning 69-moddasida ushbu institutlarning konstitutsiyaviy maqomi quyidagicha mustahkamlandi: «Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi» [1, 69-m.].

Shuningdek, Konstitutsiyaning 70-moddasida jamoat birlashmalarining institutsional daxlsizligi oliy darajada kafolatlandi: «O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi» [1, 70-m.]. Bundan tashqari, yangi Konstitutsiyaning 115-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va ularning davlat dasturlarini ishlab chiqishdagi ishtirokini ta'minlash majburiyati yuklatildi [1]

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va ijtimoiy sheriklik: NNTlar aholining ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash va manzilli hal etishda davlatning asosiy hamkoriga aylanmoqda. So'nggi uch yil mobaynida O'zbekistonda NNTlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash (davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari) hajmi 3 baravarga oshib, 45 milliard so'mdan ortiqni tashkil etdi [13].

Bu esa ta'lim, tibbiyot, ekologiya, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash kabi yo'nalishlarda davlat funksiyalarining bir qismini jamoat sektorlariga autsorsing va ijtimoiy buyurtma shaklida o'tkazish imkonini bermoqda. Biroq, empirik tahlillar NNTlarning hududiy joylashuvida keskin asimmetriya (nomutanosiblik) mavjudligini ko'rsatadi: mamlakatdagi jami jamoat tashkilotlarining 42 foizi poytaxt — Toshkent shahrida to'plangan bo'lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarining har biriga atigi 5–7 foizdan ulush to'g'ri keladi [6, 118-b.; 13]. Mazkur hududiy tafovut chekka tumanlarda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy tashabbuslarning sustlashishiga sabab bo'lmoqda.

Jamoatchilik nazorati va ko'ppartiyaviylik tizimi: «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonun ijrosi doirasida respublika vazirlik va idoralari huzurida 40 dan ortiq Jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, jamoatchilik eshituvi, monitoringi va ekspertizasi amaliyotga tatbiq etildi [5]. Biroq, joylardagi ayrim jamoatchilik kengashlari tarkibining idoraviy ta'sir ostida shakllanishi ularning faoliyatida rasmiyatchilik elementlarini keltirib chiqarmoqda. Siyosiy plyuralizm yo'nalishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida faoliyat yuritayotgan 5 ta siyosiy partiya fraksiyasi qonun ijodkorligida elektorat manfaatlarini himoya qilmoqda [7, 64-b.]. Shunga qaramay, parlament nazorati doirasida yuborilgan deputatlik so'rovlarining 15 foizida ijro hokimiyati mansabdor shaxslari tomonidan javob berish muddatlari va ijro intizomi buzilgani aniqlangan [13].

Ommaviy axborot vositalari (OAV) — «to'rtinchi hokimiyat»: Axborot makonini liberallashtirish natijasida mamlakatda ro'yxatga olingan OAVlar soni 2000 tadan oshdi va ularning 60 foizdan ziyodini nodavlat OAVlar tashkil etadi [13]. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi presedentlarida ham OAV erkinligi demokratik jamiyat manfaatlarini qo'riqlashning alohida himoyalanuvchi sharti sifatida e'tirof etilgan [12, 154-b.; 14]. Milliy mediada korrupsiyaviy holatlar va mansabdor shaxslarning xato-kamchiliklari yuzasidan tanqidiy jurnalistik surishtiruvlarning ko'payishi ijro organlari hisobdorligini oshirmoqda. Biroq, ayrim hollarda jurnalist va blogerlarning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilish holatlarining

uchrashi so'z erkinligini ta'minlashda protsessual-huquqiy kafolatlarni kuchaytirishni talab etadi.

Mahalla instituti va raqamli (elektron) demokratiya: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadida mahalla institutini jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish vazifasi belgilangan [2]. Mahallaning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida «Mahalla budjeti» tizimi hamda «mahalla yettiligi» mexanizmi joriy etilishi natijasida hududiy muammolarning qariyb 70 foizi bevosita aholining o'z tashabbusi va hamjihatligi bilan joyida hal etilmoqda [9, 82-b.]. Shu bilan birga, «Elektron hukumat» arxitekturasi doirasida ishga tushirilgan «Mening fikrim» jamoaviy murojaatlar portali hamda «Ochiq budjet» (Tashabbusli budjet) platformalari millionlab fuqarolarni mahalliy budjet mablag'larini taqsimlash jarayoniga bevosita jalb etib, byurokratik va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

«Fuqarolik jamiyati — demokratik davlatning mustahkam poydevori» mavzusida olib borilgan tarixiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy hamda empirik tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat bir-birini taqozo etuvchi dialektik birlikdir. Sharq va G'arb siyosiy-falsafiy tafakkuri evolutsiyasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati davlatning vertikal ma'muriy majburloviga emas, balki erkin individlarning ixtiyoriy gorizontal o'zini o'zi tashkil etishiga tayanadi. U demokratik davlatning uchta fundamental poydevori — iqtisodiy plyuralizm (mulkdorlar qatlami), siyosiy-mafkuraviy xilma-xillik va yuksak huquqiy ong uyg'unligida barqaror amal qiladi [6; 8].

Ikkinchidan, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobida (69–70-moddalar) fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi va sud himoyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani davlat boshqaruvini markazlashtirishdan nomarkazlashtirishga o'tkazish uchun mustahkam poydevor yaratdi [1]. Mamlakatda 10 mingdan ortiq NNTlar faoliyati, davlat ijtimoiy

buyurtmalarining 3 baravarga (45 mlrd so'mdan ziyod) ko'payishi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarning 70 foizi bevosita «Mahalla budjeti» va fuqarolar tashabbusi bilan hal etilayotgani fuqarolik jamiyatining real boshqaruv subyektiga aylanganini isbotlaydi [9; 13].

Uchinchidan, Ko'ppartiyaviylik, jamoatchilik kengashlari, «to'rtinchi hokimiyat» maqomidagi mustaqil OAV (60 foizdan ortig'i nodavlat sektor) hamda «Mening fikrim» va «Ochiq budjet» kabi elektron demokratiya vositalari davlat idoralari faoliyati shaffofligini ta'minlovchi, korrupsiyaviy omillarni cheklovchi va ijro hokimiyatini xalq oldida hisobdorlikka chorlovchi asosiy institutsional mexanizmlar sifatida namoyon bo'lmoqda [12; 13].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik kengashlarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish hamda ularning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini to'liq raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini 30 foizga oshirish imkoniyati mavjud. Demokratik davlat poydevorini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish: Joylardagi jamoatchilik kengashlari faoliyatidagi rasmiyatchilikka barham berish maqsadida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunga barcha darajadagi ijro hokimiyati rahbarlarining jamoatchilik oldida majburiy yillik hisobot berish tartibini kiritish, shuningdek, deputatlik so'rovlariga javob berishda ijro intizomini buzgan (15% holatda) mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini qat'iylashtirish.

NNTlar moliyaviy imkoniyatlarini va kafolatlarini kengaytirish: NNTlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobot topshirish jarayonlaridagi byurokratik to'siqlarni qisqartirish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshiruvchi NNTlarga qo'shimcha soliq imtiyozlari berish hamda OAV vakillari va jurnalistlarning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik sanksiyalarini kuchaytirish.

Raqamli integratsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish: «Elektron hukumat» tizimi bilan fuqarolik jamiyati institutlari yagona elektron bazasini o'zaro integratsiya qilish, shuningdek, sun'iy intellekt algoritmlari yordamida davlat xaridlari va budjet sarfini monitoring qiluvchi elektron jamoatchilik nazorati platformalarini yaratish hamda ularning samaradorlik indeksini (KPI) baholash metodikasini ishlab chiqish.

Fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy madaniyatni uzluksiz yuksaltirish: Uzluksiz ta'lim tizimi va mehnat jamoalarida huquqiy savodxonlik dasturlarini kuchaytirish orqali qonunlarga ongli ravishda rioya etadigan, korrupsiyaga nisbatan murosasiz pozitsiyaga ega hamda shaxsiy manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'unlikda ko'radigan faol fuqaro shaxsini tarbiyalash.

Umuman olganda, mazkur ilmiy-amaliy takliflarning hayotga tatbiq etilishi davlat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» strategik konsepsiyasining barqaror ro'yobga chiqishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirda, 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan). — Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2023. — 88 b. URL: https://lex.uz/docs/-6445145
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063
3. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. — Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002. — 172 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. — 464 b.

5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-sonli «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonuni. — Toshkent: «Adolat», 2018. — 45 b.
6. Saidov A.X. Demokratiya va fuqarolik jamiyati. — Toshkent: «Sharq», 2021. — 320 b.
7. Karimov B. Siyosiy partiyalar va parlamentarizm. — Toshkent: «Mumtoz so'z», 2019. — 180 b.
8. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. — Toshkent: «Sharq», 2003. — 512 b.
9. Xalilov T. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: «Akademnashr», 2020. — 210 b.
10. Аристотель. Политика / Пер. с древнегреч. С.А. Жебелева. — Москва: АСТ, 2016. — 384 с.
11. Гегель Г.В.Ф. Философия права / Пер. с нем. Б.Г. Столпнера. — Москва: Мысль, 1990. — 524 с.
12. Xojageldiyev A.U. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining siyosiy-huquqiy asoslari // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. — 2023. — Volume 3, Issue 12. — B. 152–156. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10418272
13. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bo'yicha rasmiy statistik axborotnomasi. — Toshkent, 2023.
14. Законы о печати // Журнал Inter-Nations. — 2003. — 10 апреля. URL: http://www.deutschebotschaft-moskau.ru/ru/biblioth